Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Badiiy uslubda so‘z qo‘llash imkoniyatlari keng, unda turli uslublarga xos, hatto ilmiy terminologiyaga oid birliklarning ham erkin ishlatilishiga yo‘l beradi. Tilshunoslikda turli soha terminlarining lingvopoetik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalar mavjudki, bu borada davr talablari asosida keng qamrovli izlanishlar olib borish oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizdan biridir.

Abdukodirova Yulduz Safaraliyevna (Navoiy davlat universiteti Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi tayanch doktoranti; e-mail: yulduzabdukodirova272@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PUL BIRLIKLARIGA OID MAQOLLARNING MUTANOSIBLIK DARAJASI

Annotatsiya. *Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribasini, dunyoqarashini, qadriyatlarini ifoda etuvchi muhim lingvokulturologik birliklar sanaladi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning muhim qismi bo‘lgan pul va uning birliklariga oid maqollar xalq mentalitetini tadqiq qilish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida pul birliklariga oid maqollarning semantik sathda o‘zaro mos yoki nomutanosib bo‘lishi tahlil qilinadi va tilshunoslarning fikrlari bilan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *semantik sath, to‘liq muvofiq bo‘lgan maqollar, qisman muvofiq bo‘lgan maqollar, umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar, universaliyalar, dinamik ekvivalentlik.*

СТЕПЕНЬ СОВМЕСТИМОСТИ ПОСЛОВИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ДЕНЕЖНЫМ ЕДИНИЦАМ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Пословицы являются важными языковыми и культурными единицами, выражающими многовековой опыт, мировоззрение и ценности народа. В частности, ценным источником для исследования менталитета людей являются пословицы о деньгах и их единицах, которые являются важной частью экономических отношений. В данной статье на основе мнения лингвистов анализируется, совместимы или несовместимы на семантическом уровне пословицы, связанные с денежными единицами в английском и узбекском языках.*

Ключевые слова: *семантический уровень, полностью совместимые пословицы, частично совместимые пословицы, совершенно противоречивые пословицы, универсалии, динамическая эквивалентность.*

THE DEGREE OF CORRESPONDENCE OF PROVERBS ABOUT MONETARY UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *Proverbs are essential linguocultural units that express the old experiences through centuries, worldview, and values of the people. In particular, proverbs about money and its units, which are an important part of economic relations, are a valuable source for studying the mentality of the people. This article analyzes the semantic compatibility or incompatibility of proverbs about monetary units in English and Uzbek and relating to the opinions of linguists.*

Keywords: *semantic level, fully corresponding proverbs, partially corresponding proverbs, completely incompatible proverbs, universals, dynamic equivalence.*

Kirish (Introduction). Har bir xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlari uning tilida, ayniqsa, maqollarida o‘z aksini topadi. Pul birligiga oid maqollar ham xalqning iqtisodiy hayoti, qadriyat tizimi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida ushbu maqollarni aksiologik jihatdan o‘rganish ularning semantik mutanosiblik darajasini aniqlashga yordam beradi. Pul bilan bog‘liq maqollarning bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilda ekvivalenti uchrashi tabiiy hodisadir. Chunki pul butun dunyo xalqlari uchun iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan universal tushunchadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maqollarning semantik-struktur, g‘oyaviy va lingvokultrologik tadqiqi yuzasidan V.N.Teliya, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, V.P.Jukov, N.N. Amosova, E.V.Ivanova, J.Raymond, R.W.Ridout, W.Clifford, G.L.Apperson, W.Hazlitt kabi olimlar tadqiqot olib borgan. O‘zbek tilshunoslikgida Y.Rahmatov, B.Jo‘rayeva, R.U.Majidova, A.A.Nosirov, O.P. O‘ralova, B.M.Jurayeva, A.E.Mamatov kabi olimlarning ishlarida maqollar yoritilib tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metadologiyasi (Reasearch Methodology). Maqollar semantik nuqtayi nazardan uch guruhga bo‘linib tahlil qilinadi: to‘liq mutanosib, qisman mutanosib, umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar.

• To‘liq muvofiqliklar. Bunday mutanosiblikni A.V.Kunin va W.Mieder universal iqtisodiy tajribaning aks etishi bilan izoh berishadi.[1] Unga ko‘ra, iqtisodiy sohadagi iboralar va maqollar turli tillarda, ko‘pincha, ekvivalent shaklda bo‘ladi.[2] To‘liq mutanosib maqollar tarkib va mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, ular deyarli bir xil ma’noda ishlatiladi. Bu holat xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o‘xshashligi, pulning universal ahamiyati va insoniyatning umumiy tajribasi bilan bog‘liq. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim maqollarda pulga bo‘lgan munosabat, iqtisodiy tafakkur va hayotiy tajriba bir xil aks etadi.

English	Uzbek
Time is money.	Vaqt – bu pul.
Money doesn’t grow on trees.	Pul daraxtda o‘sib chiqmaydi.
A penny saved is a penny earned.	Tejamkorlik ham daromaddir.
Easy come, easy go.	Oson kelgan – oson ketadi.
Money makes money.	Pul pulni chaqiradi.
Money talks.	Pul gapiradi.
Poverty is no sin, but it’s no honor either.	Qashshoqlik gunoh emas, lekin u sharaf ham emas.
He who pays the piper calls the tune.	Kim pul to‘lasa o‘sha musiqani buyurtma qiladi.
Money makes the world go round.	Pul dunyoni aylantiradi.

Tahlil: “Time is money” va “Vaqt – pul” maqollari ikkalasida ham vaqtning qadrini bilish va uni unumli sarflash boylik orttirishning muhim omili ekanligi ta’kidlangan.

“Money doesn’t grow on trees” maqolining o‘zbek tilidagi ekvivalenti ham xuddi shunday fikrni ifodalaydi: pul osongina topilmaydi, uni topish uchun harakat qilish kerak.

“A penny saved is a penny earned” va “Tejamkorlik – boylikning kaliti” maqollari odamlarni tejamlikka undaydi va pulni isrof qilmaslikni maslahat beradi.

• Qisman mutanosib maqollar. Bu guruhga mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, lekin ibora tuzilishi va ifoda usuli jihatdan farqlanuvchi maqollar kiradi. Ba’zan ikki tildagi maqollar mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lsada, semantik jihatdan to‘liq mos kelmaydi. Qisman mutanosib maqollar haqida E.Nida tarjima nazariyasi doirasida “dinamik ekvivalentlik” tushunchasini kiritgan bo‘lib, u iboralarning asosiy ma’nosi saqlangan holda turli tillarda ifoda shakli o‘zgarishi mumkinligini ta’kidlaydi.[3]

English	Uzbek
Put your money where your mouth is.	Ishing gapingdan ustun bo‘lsin.
Take care of pennies, and the pounds will take care of themselves.	Pulning kattasi yo‘q, tejalgani bor.
A fool and his money are soon parted.	Telba boylikni ko‘tara olmaydi.
The best things in life are free.	Eng yaxshi narsalar pul bilan o‘lchanmaydi.
Save your pennies for a rainy day.	Har kuning bayram emas, tejab-tergab yur.
A fool may earn money, but it takes a wise man to keep it.	Pul toppish oson, uni saqlash qiyin.
A man without money is like a wolf without teeth.	Pulsiz odam qanotsiz qushga o‘xshaydi.
A ruble borrowed is a ruble owned.	Qarz olingan so‘m ikki barobar yo‘qotilgan so‘m.
You have to spend money to make money.	Pul pulni chaqiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). “Easy come, easy go” va “Oson kelgan boylik qadrsiz” maqollarining umumiy ma’nosi bor ya’ni inson mehnat qilmasdan topgan boyligini tez yo‘qotadi.

“He who pays the piper calls the tune” maqolining so‘zma-so‘z tarjimasi “Kim pul to‘lasa, o‘sha musiqani buyurtma qiladi”dir. Bu maqol o‘zbek tilida keng qo‘llanilmaydi, ammo “Kim pul to‘lasa, o‘sha hukmron bo‘ladi” degan tushunchaga yaqin hisoblanadi. Bu maqollarda asosiy mazmun bir xil bo‘lsa-da, ifoda shakli va aks ettirilgan tafakkur farqlanadi. Masalan, “Money talks” maqolida pulning kuchi haqida gap boradi, o‘zbekcha maqolda esa bu fikr yanada aniqlashtirilgan holda ifodalanadi.

“The love of money is the root of all evil” maqoli esa “Pulga muhabbat barcha yomonliklarning ildizi” shaklida o‘zbek tilida uchraydi, lekin bu iboraning asosiy manbasi Injil ekanligini inobatga olsak, u diniy kontekstda ko‘proq ishlatiladi.

•Umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar. Ba’zi maqollar esa faqat bitta tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalent topilmaydi. Bular, ko‘pincha, milliy mentalitet, tarixiy tajriba va iqtisodiy qarashlarning farqlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu masala tarjima tadqiqotchilari K.Malmkjaer va H.Molla-

[1] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Москва, “Высшая школа”, 1996.
[2] Mieder W. Proverbs: a handbook. Greenwood Press, 2004.
[3] Nida E. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.

nazar tomonidan frazeologik birliklarning tarjima jarayonidagi muammolari sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu maqollarni tarjima qilish qiyin bo‘lib, ular ekvivalent hisoblanmaydi.[1]

“Money talks” ingliz tilida keng ishlatiladigan maqol bo‘lib, pulning jamiyatdagi kuchini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa “Boy bo‘lgan – bosh bo‘lgan” shaklida biroz umumiyroq ma’no beriladi.

“If you pay peanuts, you get monkeys” va “Arzon go‘sht sho‘rvaga qochadi” maqollari ma’nosi yaqin bo‘lsa ham, tuzilish jihatidan farq qiladi.

“A fool and his money are soon parted” maqoli esa o‘zbek tilida bevosita ekvivalentga ega emas, lekin “Ahmoqning puli yelga o‘xshaydi – uchib ketadi” iborasi mazmunan unga yaqin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ingliz va o‘zbek tillarida pul birliklariga oid maqollar uch xil mutanosiblik darajasiga, ya’ni, to‘liq mutanosib mazmun va shakl jihatdan deyarli bir xil, qisman mutanosib mazmuni o‘xshash, lekin ifoda shakli farqli, umuman, mutanosib bo‘lmagan mentalitet va madaniyatga bog‘liq holda shakllangan maqollarga bo‘linib, ushbu maqollar xalqning iqtisodiy dunyoqarashi, qadriyatlari va hayot tajribasini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

•to‘liq mutanosib maqollar xalqaro iqtisodiy tajribaga asoslangan;

▪qisman mutanosib maqollar tarjimada dinamik ekvivalentlikni talab qiladi;

▪mutanosib bo‘lmagan maqollar esa har bir xalqning o‘ziga xos iqtisodiy tafakkuridan dalolat beradi;

▪nufuzli tilshunoslar frazeologik birliklarning universal, qisman ekvivalent yoki mutlaqo o‘ziga xos bo‘lishini tilning madaniy qatlamlari bilan izohlaydilar.

Ushbu maqola pul haqidagi maqollarni semantik sathda tahlil qilish bilan birga, tarjima jarayonida madaniy xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ko‘rsatishi bilan bir qatorda, keyingi tadqiqotlarda maqollarning pragmatik va stilistik jihatlari ham chuqurroq o‘rganilishi lozimligini ko‘rsatadi. Xususan, pul bilan bog‘liq maqollarni aksiologik jihatdan o‘rganish kelajakda iqtisodiy leksika va madaniy tafovutlarni tadqiq qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Baker, M. In Other Words. A Coursebook on Translation. Routledge, 2018.

(2). Kunin A.V. English-Russian Phraseological Dictionary. Moscow, Sovetskaya Entsiklopediya, 1970.

(3). Kurbonboevna C.I., Nasimjon o‘g‘li I.A.Comparative Analysis of Body Language in English and Uzbek Culture the Meaning of Hand Gestures. International Journal of Formal Education. 2023, t. 2, № 6, p. 349–351.

(4). Malmkjaer, K. Linguistic and Cultural Translation Studies. Oxford: Oxford University Press, 2005.

(5). Mieder W. Proverbs: A handbbok. Westpork: Greenwood Press, 2004.

(6). Mollanazar, H. Principles and Methods of Translation. Tehran, SAMT, 2001.

(7). Newmark, P. A Textbook of Translation. Prentice Hall, 1988.

(8). Nida E. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969.

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna (Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi; e-mail: sarvinozraxmonova94@.gmail.com)

SABR VA CHIDAM FRAZEOLOGIZMLARINING TARIXIY-LINGVISTIK ILDIZLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola sabr va chidam frazeologizmlarining tarixiy va lingvistik ildizlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Sabr va chidam inson ruhiyatining mustahkamligi, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga qarshi turish qobiliyatini ifodalovchi muhim frazeologik birliklardir. Maqolada bu frazeologizmlarning turli tillarda va madaniyatlarda qanday rivojlanganligi, ularning tarixiy ildizlari va ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sabr va chidam frazeologizmlarining o‘zbek tilidagi o‘rni va rivojlanish jarayoni hamda ularning xalq an’analaridagi o‘rni ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar*: sabr, chidam, frazeologizmlar, tarixiy ildizlar, lingvistika, madaniyat, tilshunoslik, ijtimoiy munosabatlar, o‘zbek tili, xalq an’analari.*

Рахманова Сарвиноз Алишеровна (преподаватель Термезского государственного педагогического института; e-mail: sarvinozraxmonova94@.gmail.com)

ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ КОРНИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ТЕРПЕНИЯ И ВЫНОСЛИВОСТИ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению историко-лингвистических корней фразеологии терпения и выносливости. Терпение и выносливость – важные фразеологизмы, выражаю-*

[1] Malmkjaer, K. Linguistic and Cultural Translation Studies. Oxford: Oxford University Press, 2005.